

**NAMANGAN VILOYATIDA ZOTLI SIGIRLARDA MORTELLARO
KASALLIGINI UCHRASH DARAJASI .**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7894532>

Ernazarov D.A.

tayanch -doktarant

Bozorov Q.K

magistr

Niyozov H.B.

Ilmiy rahbar: vet.f.d., professor

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, choroachilik va biotexnologiyalar
universiteti*

Annotatsiya

Qoramolchilik xo'jaliklaridagi zotli sigirlarda fasllar bo'yicha taxlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 338 bosh hayvonlarning 25 boshida (43,8 %), bahor faslida 22 boshida (38,5%), kuz faslida esa 10 boshida (17,5%) va o'rtacha 14 bosh (24,5%) hayvonda Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligi kechayotganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar.

Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligi pododermatitlar, tuyoqchalar oralig'ida dermatitlar, tuyoq va yumaloq bo'g'in artriti, tuyoq kafti, teri asosida shikastlanishlar, jarohatlar.

Xo'jaliklarda kasal hayvonlar oyoq kasalliklarini umumiy va maxsus tekshirish usullari yordamida tekshirilganda pododermatitlar 39% ni, tuyoqchalar oralig'ida dermatitlar 31% ni, tovonning yiringli-nekrotik yarasi 14% ni, gultoij flegmonasi 7% ni, tuyoq va yumaloq bo'g'in artriti 7% ni, yumshoq tovon flegmonasi 2% ni tashkil etdi. [2].

Golshtin-friz zotiga mansub sigirlar barmoq sohasida yiringli-nekrotik jarayonni uchrash darajasi hamda patologik o'zgarishlar o'rganilgan bo'lib, tadqiqotchining ma'lumotlariga ko'ra, ortopedik patologiyalar adaptatsiya muddati bir yil bo'lgan 13,26% sigirlarda uchragan, shulardan 75% barmoq sohasidagi turli kasalliklarni, 25% tuyoq deformatsiyasini tashkil etgan. Jarrohlik jarayonlaridan 55,56% yara, 33,33% pododermatitlar, 11,11% tilomalar hisoblanadi [4,5]. V.V.Idogovning ma'lumotlariga ko'ra, yiringli pododermatit bilan

kasallangan sigirlarni davolashda sorbentlarni qo'llash birmuncha yaxshi samara berib, bunda qonning morfologik ko'rsatkichlarining tez tiklanishi, hususan eritrotsitlar va gemoglobin miqdorlarini oshishi shikastlangan to'qimalarda yoki umuman organizmda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining jadal ko'tarilishidan dalolat beradi [1].

Qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida ayrim nosog'lom chorvachilik xo'jaliklarida barmoq kasalliklarning hayvonlar orasida 20-60 foizgacha tashkil etish, ayni paytda yuqori mahsuldor hayvonlarning zararlanishi, kasallangan hayvonlarning xo'jalik qiymati, mahsuldorligi va tana vaznining pasayib ketishi kabi salbiy oqibatlar aniqlangan [3].

Hayvonlarda barmoq sohasidagi patologik jarayonlarini rivojlanishiga motsionning yetishmasligi, molxona va yayratish maydonlaridagi sanitariya holatining me'yor darajasiga javob bermasligi va asosiy omillardan biri shikastlanishlar natijasida organizmning reaktivligini pasayishi va shikastlangan joyga mikroorganizmning rivojlanishi sabab bo'lgan [6; 7; 8].

Maqsad va vazifalar. Xo'jaliklarda xorijdan keltirilgan sigirlar orasida Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligining uchrash darajasini o'rganish tekshirishning asosiy maqsadi bo'lib hisoblandi.

Tadqiqot ob'ekti va uslublari. Sigirlar orasida Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligining uchrash darajasi, ularni keltirib chiqaruvchi etiologik omillari va klinik belgilariga oid ilmiy tekshirish ishlari va tajribalarimiz Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorva chilik va biotexnologiyalar universiteti, veterinariya profilaktikasi va davolash fakultetining «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida, Namangan viloyati To'raqo'g'on tumani Xalol meat, Sardor Baxrom ZOO, ALP chinor chorvachilik fermer xo'jaligida, Tayloq tumani "Siyob Shavkat Orzu" chorvachilik fermer xo'jaliklarida va Qo'chqorov Zafarjon xususiy xo'jaligida 2022 yilda o'tkazildi.

Hayvonlarga umumiy va maxsus tekshirish usullari yordamida to'qimalar konsistensiyasi, og'riq va patologik o'choqning o'lchami aniqlandi. Bundan tashqari patologik o'choqdan ajralayotgan suyuqlikning rangi, konsistensiyasi, kasallikning klinik belgilariga qarab o'zgarishlar o'rganilib, tashxis qo'yib borildi.

Tadqiqot natijalari Namangan viloyati To'raqo'g'on tumani "Xalol meat" chorvachilik fermer xo'jaligida chetdan keltirilgan zotli sigirlar asosan ananaviy sharoitda saqlanib boqiladi, bunda hayvonlar saqlanadigan molxonalarni pollari hamda yayratish maydonchalari tuproq yerdan iborat. Ushbu xo'jalikda 2022 yilda 67 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 3 bosh

(37,5%), bahor oylarida 4 bosh (50 %), yoz oylarida uchramadi, kuz oylarida esa 1 bosh (12,5%) Mortellaro kasalligi bilan kasallanganligi va bu o'rtacha 2 boshni (25%)ni tashkil qildi. Shunga o'xshash To'raqo'g'on tumani "Baxrom ZOO" chorvachilik fermer xo'jaligida ham chetdan keltirilgan zotli sigirlar asosan sanoat tipida qurilgan molxonalarda saqlab boqiladi, hayvonlar saqlanadigan molxonalar va yayratish maydonchalari poli betondan qilingan bo'lib, ularda namlik yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu xo'jalikdan 164 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 6 bosh (37,5 %), bahor oylarida 6 bosh (37,5%) yoz oylarida uchramadi, kuz oylarida 4 bosh (25 %) .va o'rtacha 4 bosh (25 %) hayvon Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligi bilan kasallanganligi ma'lum bo'ldi. (1-jadval)

To'raqo'g'on tumani "ALP chinor" chorvachilik fermer xo'jaligida chetdan keltirilgan zotli sigirlar asosan ananaviy sharoitda saqlanib boqiladi, bunda hayvonlar saqlanadigan molxonalarni pollari hamda yayratish maydonchalari tuproq yerdan iborat. Bu xo'jalikdan 70 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 4 bosh (33,3%), bahor oylarida 5 bosh (41,7 %) yoz oylarida uchramadi, kuz oylarida 3 bosh (12%) va o'rtacha 3 bosh (12%) hayvonda Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligi borligi qayd qilindi.



1-rasm. Mortellaro (barsoqlararo dermatit) kasalligi

Qoramolchilik fermer xo'jaliklaridagi zotli sigirlarda Mortellaro (barsoqlararo dermatit) kasalligining fasllar bo'yicha uchrash darajasi.

1-jadval

Xo'jalik nomi	Jami tekshirilgan hayvonlar soni	Jami kasllangan hayvonlar soni	2022-yilda kasallangan hayvonlar soni va foizi									
			Qish		Bahor		Yoz		Kuz		O'rtacha	
			soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
To'raqo'g'on tumani Xalol meat f/x	67	8	3	37,5	4	50	-	-	1	12,5	2	25
To'raqo'g'on tumani Sardor Baxrom ZOO f/x	164	16	6	37,5	6	37,5	-	-	4	25	4	25
To'raqo'g'on tumani ALP chinor f/x	70	12	4	33,3	5	41,7	-	-	3	12	3	12
To'raqo'g'on tumani Qo'chqorov Zafarjon xususiy xo'jaligi	37	21	12	57,1	7	33,3	-	-	2	9,5	5	23,8
Jami	338	57	25	43,8	22	38,5	-	-	10	17,5	14	24,5

Samarqand tumani "Qo'chqorov Zafarjon" xususiy xo'jaligida ham chetdan keltirilgan zotli sigirlar asosan ananaviy sharoitda saqlanib boqiladi, bunda hayvonlar saqlanadigan molxonalarni pollari hamda yayratish maydonchalari tuproq yerdan iborat. Xo'jalikdagi 37 bosh qoramollar klinik tekshirilganda, ularning ularning qish oylarida 12 bosh (57,1%), bahor oylarida 7 bosh (33,3%) yoz oylarida uchramadi, kuz oylarida 5 bosh (6,2%) va o'rtacha 32 bosh (9,4%) hayvonda Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligi borligi aniqlandi.

Olingan natijalarni fasllar bo'yicha taxlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 338 bosh xayvonlarning 25 boshida (43,8%), bahor faslida 22 boshida (38,5%), kuz faslida esa 10 boshida (17,5%) va o'rtacha 14 bosh (24,5%) hayvonda Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligi kechayotganligi aniqlandi (1-rasm).

Xulosa

Tekshirishlar natijasida qoramolchilik xo'jaliklaridagi zotli sigirlarda fasllar bo'yicha taxlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 338 bosh xayvonlarning 25 boshida (43,8%), bahor faslida 22 boshida (38,5%), kuz faslida esa 10 boshida (17,5%) va o'rtacha 14 bosh (24,5%) hayvonda Mortellaro (barmoqlararo dermatit) kasalligi kechayotganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Идогов В.В. Лечение коров больных гнойным пододерматитом с применением биологически активных сорбентов // Дисс. канд. вет. наук. Ульяновск, 2011. 194 с.

2. Ниёзов Ҳ.Б., Эшқувватов Х.Х. Хориждан келтирилган махсулдор қорамолларда бармоқ касалликлари, унинг этиопатогенези ва клиник белгилари. //Қишлоқ хўжалигида ислохотларни чуқурлаштиришда ёш олимларнинг эришган ютуқлари ва муаммолар Стажер-тадқиқотчи-изланувчи ва ёш олимларнинг 2011 йил “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили”га бағишланган илмий-амалий конференцияси Самарқанд-2011-143-147 б.

3.Руколь В.М. Применение препарата «Биохелат-спрей» для лечения коров с болезнями пальцев. // Ученые Записки УО ВГАВМ. Витебск, 2014.- т.50. вып.1.ч.1.-С.138-141.

4. Утеев Р.А. Клинико-морфологическая характеристика и терапия гнойно-некротических процессов в области пальцев у коров голштинно-фризской породы. Автореф. // Дисс...канд. вет. наук. Уфа, 2013.-18 с.

5.Черняк С.В., Яремчук А.В. Распространение и лечение гнойно-некротических процессов в области пальцев. Научное обеспечение животноводства Сибири. Материалы II Международной научно-практической конференции (г.Красноярск, 17-18 мая 2018 г.). Красноярск, 2018. -С. 289-295.

6.Nuriddinov.B.Y., &Niyazov.H.B. (2022).MORPHOLOGICAL INDICATORS OF BLOOD IN THE TREATMENT OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF COWS WITH DIFFERENT METHODS. *Conferencea*, 150-155.

7.Nuriddinov.B.Y., &Niyazov.H.B. (2022). INFLUENCE OF ETIOLOGICAL FACTORS AND SEASONS ON THE OCCURRENCE OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF BREEDDED COWS. *Conferencea*, 116-122.

8.H.B.Niyozov, N.N.Ergashev - ACADEMICIA: An International Multidisciplinary, 2019